

YOSH AVLODNI TARBIALASHDA AXLOQIY QADRIYATLARNING O'RNI

Maxmudova Fotima Shamshinovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi.

G'afforova Mehriniso Shuhrat qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi.

mehrinisog'afforova@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.17688421>

Annotatsiya. Mazkur maqola jamiyatning ma'naviy barqarorligi, insonlarning o'zaro munosabat madaniyati va millatning kelajagi yosh avlodning qanday tarbiya olishi bilan chambarchas bog'liq. Tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarining o'rni beqiyosdir.

Chunki axloq — bu insonning ichki dunyosi, uning fazilatlari, iymoni, vijdoni va xulq-atvorining asosiy mezonidir. Shuning uchun yoshlarni barkamol inson qilib voyaga yetkazishda axloqiy qadriyatlarga tayanish har qanday jamiyat uchun muhim strategik vazifadir. Axloqiy fazilatlarni oshirishda madaniy qadriyatlarining ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Unda madaniyat, axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasining o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Yoshlar o'z madaniy merosini, urf-odatlarini va an'analarini bilib, ularni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish orqali o'z axloqiy fazilatlarni mustahkamlashi mumkin. Maqolada madaniy qadriyatlarining yoshlar axloqiga ta' siri, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan axloqiy tamoyillar asosida axloqiy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llari ko'rsatiladi. Madaniyat, adolat, halollik, mehr-muhabbat kabi qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali ularning axloqiy kamolotiga erishish mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik metodlar, o'qituvchi, o'quvchi, ma'naviyat, ma'daniyat, yoshlar, axloqiy fazilatlari, qadriyatlar, o'rganish, resurslar, o'z-o'zini baholash.

Аннотация. Эта статья тесно связана с духовной стабильностью общества, культурой человеческого взаимодействия и будущим нации, с тем, как воспитывается подрастающее поколение. Роль нравственных ценностей в процессе воспитания несравненна. Потому что нравственность является главным критерием внутреннего мира человека, его качеств, веры, совести и поведения. Поэтому опора на нравственные ценности в воспитании молодежи как всесторонне развитых личностей является важной стратегической задачей для любого общества. Она посвящена изучению значения культурных ценностей в совершенствовании их нравственных качеств. В ней анализируется взаимозависимость культуры, нравственных ценностей и воспитания молодежи. Молодые люди могут укрепить свои нравственные качества, изучая свое культурное наследие, обычаи и традиции и интегрируя их в современную жизнь. В статье показано влияние культурных ценностей на нравственность молодежи, пути эффективной организации процесса нравственного воспитания на основе нравственных принципов, воплощающих национальные и общечеловеческие ценности. Подчеркивается, что моральная зрелость молодежи может быть достигнута путем привития ей таких ценностей, как культура, справедливость, честность и любовь.

Ключевые слова: Педагогические методы, учитель, ученик, духовность, культура, молодежь, нравственные качества, ценности, обучение, ресурсы, самооценка.

Annotation. This article is closely related to the spiritual stability of society, the culture of human interaction, and the future of the nation, how the younger generation is educated. The role of moral values in the process of upbringing is incomparable. Because morality is the main criterion of a person's inner world, his qualities, faith, conscience, and behavior.

Therefore, relying on moral values in raising young people as well-rounded individuals is an important strategic task for any society. It is devoted to studying the importance of cultural values in improving their moral qualities. It analyzes the interdependence of culture, moral values, and youth education. Young people can strengthen their moral qualities by learning about their cultural heritage, customs, and traditions and integrating them with modern life. The article shows the influence of cultural values on the morality of young people, ways to effectively organize the process of moral education based on moral principles that embody national and universal values. It is emphasized that the moral maturity of young people can be achieved by instilling values such as culture, justice, honesty, and love into their minds.

Key words: Pedagogical methods, teacher, student, spirituality, culture, youth, moral qualities, values, learning, resources, self-assessment.

O'zbekiston xalqining asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari, urf-odatlar va diniy an'analar axloqiy tarbiyaning mustahkam poydevori bo'lib kelgan. "Kattaga hurmat, kichikka izzat", "Halollik eng katta boylik", "Yaxshilik qil, suvga tashla" kabi maqollar xalqimizning axloqiy qarashlarini ifodalaydi.

1. Axloqiy qadriyatlarning mohiyati

Axloqiy qadriyatlar — bu insonning jamiyatda o'zini tutish, boshqalar bilan munosabatda bo'lish, halollik, adolat, mehr-shafqat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni o'zida mujassam etuvchi me'yorlardir. Ular nafaqat oila, balki ta'lim muassasalari va jamiyat hayotida ham yoshlar tarbiyasining asosini tashkil etadi.

2. Axloqiy tarbiyaning oiladagi o'rni

Oila — bu inson shaxsining shakllanishida birinchi va eng muhim maktabdir. Bola avvalo ota-onasining xatti-harakatlariga, so'zlariga, turmush tarziga qarab o'rnak oladi. Shu bois ota-onaning axloqiy fazilatlari farzand tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Oila muhitida mehr, sabr, hurmat, mas'uliyat, milliy qadriyatlar singdirilsa, bola hayotga ijobiy qarash bilan ulg'ayadi. Aksincha, axloqiy bo'shliq bo'lgan muhitda tarbiyalangan farzand jamiyatga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi.

3. Maktab va ta'lim tizimining roli

Yosh avlod tarbiyasida maktab va ta'lim muassasalari o'ta muhim o'rin tutadi.

O'qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki shaxs tarbiyalovchi insonlardir. Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik va insonparvarlik ruhida o'quvchilarga ta'sir o'tkazish zarur.

Bugungi kunda O'zbekistonda "Ma'naviyat va ma'rifat" yo'nalishidagi darslar, "Milliy g'oya", "Axloq asoslari" kabi fanlar yoshlarni ezgu fazilatlar bilan qurollantirishga xizmat qilmoqda.

4. Axloqiy qadriyatlarning zamonaviy talqini

Globallashuv davrida internet, ommaviy madaniyat va texnologik rivojlanish yoshlarning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli axloqiy tarbiyani zamon ruhiga moslashtirish, uni yoshlar qiziqishlariga uyg'un shaklda berish muhim. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi sahifalar, videoroliklar va loyihalar yoshlar ongida ijobiy g'oyalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ta'limda raqamli texnologiyalar yordamida axloqiy mavzularni interaktiv tarzda o'rganish samarali natijalar bermoqda.

5. Axloqiy qadriyatlar — milliy g'urur va barkamollik garovi

Axloqiy qadriyatlar shaxsning ma'naviy barkamolligini, milliy g'ururini shakllantiradi.

Halollik, fidoyilik, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi qadriyatlar yoshlarni jamiyat oldida mas'uliyatli inson sifatida tarbiyalaydi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

“Yoshlarimizning qalbida Vatanga sadoqat, insoniylik, halollik va mehr-muruvvat tuyg'ularini singdirish bizning eng muhim vazifamizdir.

Bu so'zlar yosh avlodni axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Tarix - ijtimoiy hayot hamda inson tafakkuri mahsulidir. Shunday ekan o'tmishdan yuz bergan har bir hodisa ma'lum ma'naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'sirida yuz berganligini ko'ramiz. Unga nazar solsak, asrlar silsilasini varaqlash jarayonida har birimizdan alohida ziyraklik va zukkolik bilan ish ko'rishlik talab etiladi. Natijada voqealar zamiridagi mantiq, falsafa, ruhiyat, siyosat, qo'yinki, har bir davrning o'ziga xos shukhiyu tashvishlari, sevinchu iztiroblari ko'zda yaxlitligicha tashlanganligining guvohi bo'lamiz. Bunday hol kishini fikrlashga, o'tmishni idrok qilib kelajakni aql yo'rig'i bilan belgilashga chorlaydi. Tarixning tafakkur mahsuli va ulug' murabbiyligi, uning muqaddas hamda oliy qadriyat ekanligini o'tmish ajdodlarimiz isbotlab keldilar. Jonajon tariximiz mustaqillik davrida yana ham oliymaqom mavqe va nufuzga ega bo'ldi.

Insonparvarlik, inson qadr-qimmat, sha'ni va or-nomusi, xaq-huquqlari hamda manfaatlarining ustuvorligi tamoyiliga tayanadi. Unda insonning hayoti oliy qadriyatdir. Bu tamoyil o'tkinchi xarakterga ega bo'lmay, balki O'zbekistonning demokratik rivojlanish istiqbolini o'zida mujassam etadi. Bunda milliy g'oyaning insonparvarlik va demokratik tamoyillari inson hamda jamiyat manfaatlarini uyg'unligini belgilab beruvchi tayanch nuqta va jipslashtiruvchi omil vazifasini o'taydi. Demak, milliy g'oya ikki muhim, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan negizga tayanadi.

Bu bir tomondan, O'zbekiston xalqining tarixi, turmush tarzi, urf-odat, an'analari, madaniyati bilan bog'liq milliy madaniy meros bo'lib, bu uning asosi, bosh negizi, tayanchi hisoblanadi. Ikkinchisi, dunyo xalqlari e'tirof etib, faqat ezgulikka, bunyodkorlik ishlariga, o'zaro totuvlik va hamjihatlikka xizmat qilib kelayotgan umuminsoniy tamoyillardir. Shu ma'noda milliy istiqloq g'oyasi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi.

Yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni har doim kuzatib, nazorat qilish zamonning dolzarb masalalari qatoriga kiradi.

Hozirgi davrda taraqqiyotimiz uchun xavfli bo'lgan, yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi, yoshlarni dushmanlik ruhida tarbiyalaydigan buzg'unchi g'oyalarga qo'shimcha ta'sirlar sifatida quyidagi vositalardan ham foydalanilmoqda, bular: internet, sputnik aloqalari, badiiy adabiyot, gazeta va jurnallar, san'at (tasviriy san'at, haykaltaroshlik, kino, seriallar, musiqa, raqs) orqali salbiy ta'sir o'tkazishdir.

Bunday tahdidlarning turlari, ularning xususiyatlari ba'zan oshkora va ba'zan o'ta maxfiy, ichki, yashirin bo'ladi, bu maqsadlarni bilish va o'z vaqtida anglash hamda unga qarshi javob berish uchun, yoshlar yuksak ma'naviyatli, g'oyaviy ongli, ma'naviy barkamol bo'lishlari shart.

Faqat shunday yoshlarga bunday ta'sirlardan himoyalanişga qodir bo'ladi.

Xulosa: Hozirgi kundagi mavjud bo'lgan mazkur mafkuraviy va ma'naviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o'z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o'z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rni beqiyosdir. Milliy qadriyatlar insonni o'z-o'zini anglashi, milliy g'ururga ega bo'lishi, o'z millati va uning tarixi bilan faxrlanuvchi, yuksak ideallarga intiluvchi va mehnatsevar, iymonli va insofli, o'tmish ajdodlar va keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt taqdirini o'z taqdiri bilan bir deb hisoblovchi shaxs bo'lib etishishi uchun xizmat qiladi.

Yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasida beparvolik va va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yOerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Yoki aksincha, qayerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur xukmron bo'lsa, o'sha erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Oldimizdagi turgan ezgu maqsadlarimiz-mamlakatimizning buyuk kelajagi xam, ertangi kunimiz, erkin va faravon xayotimiz xam, O'zbekiston XXI asrda jaxon xamjamiyatidan qanday o'rin egallashi xam - bularning barchasi, avvalambor yosh avlod, unib - o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga etishiga bog'liqdir. Yoshlar tarbiyasida doimo ogoh va sergak bo'lish, hamda milliy qadriyatlarimizni ularning ongiga singdirish biz ota onalarning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar.- T.:Sharq,2001.
2. Sagdullayev A. S. O'zbekiston tarixi. - T.: VNESHINVESTPROM, 2019.
3. Ziyomuhammadov B., Ziyomuhammedova S., Qodirova S. Ma'naviyat asoslari. T.: O'zbekiston Milliy etiklopediyasidavlat ilmiy nashriyoti, 2000.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. - T: «Sharq», 2010. - 512 b.
5. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T.: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
6. www.goole.uz